

**“QO‘RQUV” KONSEPTINI QO‘LLASHDA EVFIMIZMLARNING  
AHAMIYATI**

*Axmadaliyeva Gulmira Marufjon qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili o‘qitish  
kafedrası metodikasi o‘qituvchisi,  
E-mail: [gulmiraaxmadaliyeva594@gmail.com](mailto:gulmiraaxmadaliyeva594@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Og‘zaki nutqda inson o‘zi bilgan yoki boshqalar uchun dahshatli tuyulgan qo‘rquv holatini ifodalash uchun boshqa so‘zlardan foydalanishadi. Mazkur maqola qo‘rquv holatini ifodalashda evfimizmlarning ahamiyatini ochib berishga yordam beradi.*

***Kalit so‘zlar.** Qo‘rquv, evfemizm, tabu, kognitiv ssenariy, lug‘at.*

Insonlar o‘zlaridagi yoki atrof-muhitdagi sodir bo‘layotgan qo‘rquv holatini ifodalash uchun turli xil so‘z yoki so‘z birikmalaridan foydalanishadi. Bunday vaziyatlarni ingliz va o‘zbek tili lug‘atlari yordamida tahlil qilishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, bu kabi leksemalaridan asosan og‘zaki nutq shakllarida foydalaniladi.

Darhaqiqat, insonlar qo‘rquv yuz bergan vaziyatlarda o‘zlari qo‘rqayotgan subyekt yoki obyektни boshqa bir ismlar bilan nomlashadi va bu orqali o‘z qo‘rquvlarini inkor etishga harakat qilishadi. Buning natijasida esa turli xil evfimizmlardan foydalanish zarurati paydo bo‘ladi. “Evfemizm” terminining etimologiyasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu so‘z yunoncha “euphemismos” so‘zidan olingan bo‘lib, noo‘rin qo‘llanilayotgan lisoniy birlikning o‘rinli boshqa lisoniy birlikka almashinuvi sifatida qaraladi. Tilshunos A.A.Reformatskiyning fikriga ko‘ra, “Evfemizmlar ta’qiqlangan (tabulangan) so‘zlarning o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar jamlanmasi”dir. V.N.Yartsevaning “Лингвистический энциклопедический словарь” kitobida esa “Evfemizm” atamasiga so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay tuyulgan so‘z va ifodalar o‘rnida

qo'llangan, ularga ma'nodosh bo'lgan emotsional betaraf so'z va ifodalar yig'indisidir" degan ta'rif beriladi.

Tilshunos olim A.Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"da evfemizm terminiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Evfemizm (grek. *euphemismos*; *eu* — yaxshi, *phemi* — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash". (1)

Yuqoridagi ta'rif asosida evfimizmlarni qo'rquvni yengish uchun qo'rqinchli tuyulgan so'zlar o'rnini boshqa so'zlar bilan alishtirib ishlatish mumkin degan, xulosaga kelishimiz mumkin. Chunonchi, *chayon* leksemasi inson hayoti uchun xavfli hasharot sanaladi; shu tufayli o'zbek xalqida bu so'z o'rniga *gazanda*, *sariq eshak*, *noming o'chgur hasharot*, *oti yo'q* kabi so'zlardan foydalaniladi. *O'ldi* leksemasi ham eshitganda qo'pol va vahimali tuyulgani uchun bu so'zni o'rniga *vafot etdi*, *hayotdan ko'z yumdi*, *rihlatga ketdi*, *jonini egasiga topshirdi*, *qazo qildi*, *dunyodan ketdi*, *dunyodan o'tdi*, *olamdan o'tdi*, *joni uzildi*, *manguga uyquga ketdi*, *so'nggi soati yetdi*, *dunyo bilan vidolashdi* yoki *omonatini topshirdi* kabi yumshatuvchi ma'noni anglatuvchi so'zlardan foydalaniladi.

Ingliz tilshunosligida ham qo'rquv bilan bog'liq bo'lgan evfimizmlarni uchratamiz. *O'ldi* (*dead*) so'zi ingliz tilshunosligida ham qo'rquv ifodalovchi so'zlar turkumiga kiradi, shu tufayli ham ingliz xalqi bu so'zning o'rnini og'zaki nutqda boshqa yumshatuvchi ma'no ifodalovchi so'zlarga almashtirishadi: *passed on*, *passed away*, *lost life*, *go west*, *kick the bucket*, *gone to heaven*, *meet maker* kabilar. Shuningdek, *shayton* (*devil*, *demon*) leksik birligining o'rniga ham o'z qo'rquvlarini bartaraf etish uchun *Lucifer*, *Satan*, *Old Nick*, *black prince* yoki *Serpent* kabi so'zlarni qo'llashadi. *Shayton* so'zining ma'nodosh so'zi sifatida o'zbek tilshunosligida *iblis* so'zini ham ko'rishimiz mumkin. *Do'zax* (*Hell*) so'zi ingliz va o'zbek tilshunosligida qo'rquv bilan bog'liq leksik birlik sanaladi va bu so'zning o'rniga *Sam Hill* so'zini qo'llash mumkin. Bu so'zni o'rniga o'zbek tilshunosligida esa *Jahannam* so'zini qo'llash mumkin.

Ingliz xalqida cherkovlardan qo'rqish holati ham kuzatiladi. Ingliz

tilshunosligida bu qoʻrquv *Ecclesiophobia* atamasi bilan nomlanadi. Oʻrta asrlarda ham ingliz xalqi cherkovlarning haybati va dahshatidan qoʻrqishganligi bizga tarixdan maʼlum.

Demak xulosa oʻrnida aytish mumkinki, evfemizmlar orqali soʻzlarni qoʻrqinchli maʼnoda yetkazishning oldini olish mumkin, yaʼni boshqa soʻz yordamida boshqa bir shaxsga muloyimroq holatda yetkazish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Hojiyev A. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati. -Toshkent “Sharq”, 2001, 259-sahifa
2. Реформатский А. А. Р 45 Введение в языковедение/Под ред. В.А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996.- 536 с.-